



CHINGIZ AYTMATOVNING “JAMILA” QISSASIDA MA’NO KO’CHISH USULLARINING QO’LLANILISHI

Odinaxatova Shahnozabonu
DTPI Filologiya fakulteti talabasi

Annotatsiya ushbu maqolada so‘zlarning ma’no ko‘chish usullari haqida so‘z boradi. Avvalo bizga ma’no ko‘chish usullarini o‘rganish qay darajada zarur? Biz kundalik hayotimizda “qozonning qulog‘i” “aniqning yoqasi” degan jummalarni ko‘p qo‘llaymiz. Ammo bilamizki qozonning qulog‘i yoki ariqning yoqasi bolmaydi. Demak ushbu gaplarda o‘xshashlik asosida ma’no ko‘chishi sodir bolgan. Maqolada ana shunday ma’no ko‘chish usullarini batafsil o‘rganamiz.

Kalit so‘zlar: *metafora, metonimiya, sinekdoxa, denotat*

Maqola annotatsiyasida keltirilganidek biz ko‘cha-ko‘yda davralarda “qozonning qulog‘i” “tanburning qulog‘i” singari o‘xshatishlarni ko‘p qo‘llaymiz. Bizga ma‘lumki quloq so‘zi insonlarga umuman olganda tirik mavjudotlarga xos sanaladi. Lekin biz yuqoridagi o‘xshatishlarni o‘ylaganimizda g‘alizlik sezmaymiz. Ya‘ni ongimizda beixtiyor qozonning chet qismida joylashgan insonning quloq tana azosiga o‘xshash shakl gavdalanadi. Darhaqiqat shakl jihatdan oxshashlik sodir bo‘lgani uchun bir predmet nomi boshqasiga qo‘chgan. Ushbu hodisa fanda qanday tushuncha bilan ifodalanadi? Ushbu savolga javobni quyidagi maqolada o‘rganamiz va Chingiz Aytmatovning “Jamila” qissasi orqali tahlil qilamiz.

O‘zbek adabiy tilida ma’no ko‘chish usullari quyidagicha tasnif qilinadi

1. Metafora
2. Metanimiya
3. Sinekdoxa
4. Vazifadoshlik
5. Kinoya

Metafora: Nutqimizda eng keng tarqalgan ma’no ko‘chish usuli metaforadir. Metafora (*grekcha metaphora ko‘chirish*) bir predmet nomining boshqa predmet nomiga ular ortasidagi ma‘lumotlar asosida ko‘chishidir. Metaforik ma’no hosil bolishi uchun quyidagilardan biri sabab boladi:

1. Bir so‘z boshqa so‘zga nisbatan so‘zlarning ifoda maqsadiga koproq mos va muvofiq bo‘ladi va shuning uchun birinchisi o‘rnida ikkinchisi qo‘llaniladi. *Masalan quyi so‘z anglatadigan ma‘noni etak so‘zi qulayroq va to‘laroq ifodalaganligi boiz tog‘ining quyi tomoniga nisbatan tog‘ning etagi deyish maqulroqdir*



2. Biror denotat (lotinchadan "denotatio" belgilashning ifodalovchisi bo'lmaydi va ma'lum bir so'z boshqa denotatni ham ifodalash uchun qo'llaniladi. *Misol uchun o'zbek tilida dengizdagi o'ziga xos jug'rofiy joyning nomi bo'lmaganligi bois "qo'litiq" so'zi unga nisbatan ham qo'llaniladi.*

(hozirgi o'zbek adabiy tili toshkent-2019. R.R. sayfullayeva va boshqalar).

Ba'zi adabiyotlarda metaforaga oid misollarni quyidagilarga bo'lib o'rganish mumkin.

1. Narsaning narsaga ko'chishi.

Odamning ishi - o'z ma'nosida

Arraning tishi - ko'chma ma'noda.

2. Belgining belgiga ko'chishi.

Sovuq suv - o'z ma'nosida.

Sovuq odam - ko'chma ma'noda

3. Harakatning harakatga ko'chishi.

Daraxt barglari sarg'aydi - o'z ma'nosida.

Ona o'g'lining dardida srag'aydi - ko'chma ma'noda

Metonimiya: (grekcha *metonimiya qayta nomlash*) ifodalanmishlarning o'zaro bog'liqligi, aloqadorligi asosida bir ifodalovchining boshqa ifodalovchi uchun ishlatilishi. Metonimik ma'nolarning asosiy ko'rinishiga misol keltiramiz:

1. Bir narsa predmetning nomi bilan shu predmetdagi boshqa bir narsa ataladi.

Masalan: *stakan* A- ichimliklar uchun ishlatiladigan slindir ko'rinishdagi shisha idish.

B- bir stakkan hajmga teng suyuqlik miqdori (bir stakan suv).

2. Materiallarning nomi shu materialdan yasalgan mahsulotga o'tadi.

Kumush

A- Kumush rangli yaltiroq asl metall. B- kumushdan zarb qilingan pul tanga

3. Joy nomi bilan shu joyda yashovchi kishilar ataladi.

Masalan: qishloq A- aholisi koproq qishloq xo'jaligi bilan shugullanuvchi aholi punkti. B- qishloqda yashovchi kishilar *qishloq deydi*

Sinekdoxa: yo'li bilan hosil qilingan ko'chma ma'no deganda, biror narsaning nomi bilan uning biror qismini atash va aksincha biror narsaning qismi bilan u mansub butunni atash tushuniladi. *Kechgacha tuz totmadi* ushbu gapda qism orqali butun ifodalanmoqda, yangi tuz orqali ovqatni. *Ikkita chumchuq uchib kelib olchaga qo'ndi* bu gapda esa qism orqali butun ifodalanmoqda. Aslida butun olchaga emas uning shohiga chumchuq qo'ngan.

Vazifadoshlik: narsa yoki hodisa o'rtasidagi vazifaviy o'xshashlik asosida yuzaga chiqadigan ma'no. masalan: *qushning qanoti - samolyot qanoti*



Kinoyada: so‘z yoki ifoda nutqda asl ma‘nosiga teskari, hatto uni rad etuvchi mazmun ifodalanadi. Masalan: *axiri keldingizmi poyingizga poyonoz tushaylikmi?!*

Yuqoridagi ma‘lumotlarga tayanib Chingiz Aytmatovning “Jamila” qissasida uchraydigan man ko‘chsih usullarini tahlil qilib o‘rganamiz.

• *Stansiyaga qatnab yurib ko‘pdan beri uydagilarni ko‘rmaganim uchun o‘roqning ayni qizigan saraton kunlarining birida yo‘l-yo‘lakay uyimga kirib o‘tay deb bosh aravamni yo‘ldan burdim.*

O‘roqning ayni qizigan – metafora, **harakatning harakatga ko‘chishi.**

• *Tog‘ etaklari bo‘ylab yastanib yotgan bepayon dashtlik*

Etak - metafora **narsaning narsaga ko‘chishi.**

• *Toshdan toshga urilib ko‘piklanib, pishqirib oqqan suv kech kirishi bilan yana kopayadi.*

Pishqirib oqqan – metafora, **harakatning harakatga ko‘chishi**

• *Sal narida Gurkiruv suvi qutirib tol navdalarini egardi.*

Gurkiruv suvi – metanimiya.

• *Men bo‘lsam qorayib toshdek qotib ketgan oyoqlari bilan otni niqtab kelardim.*

Toshdek qotib ketgan- metafora, **belgining belgiga ko‘chishi.**

• *Jamiladagi bu jasorat ayniqsa o‘zini katta olib gapirishi Doniyorga qattiq tekkandek boldi.*

Qattiq tekkandek boldi – metafora, **belgining belgiga ko‘chishi**

• Sal narida poyezdlar quloqni kar qilgudek darajada bo‘kirishib o‘tishardi.

Bo‘kirishib o‘tishardi - metafora, **harakatning harakatga o‘tishi**

• sutdek oydin avgust kechalarini kim bilmaydi deysiz?

sutdek oydin kechalar – metafora, **belgining belgiga ko‘chishi.**

• Hoy Doniyor umringda birovni sevganmisan? dediyu nima uchundir kulib yubordi. “juda odamini topib so‘rading-da” deb kulib qoydim men. **kinoya**

• quyosh tog‘lar yoqalab suzib borayotgan bulutlarga qizg‘ish nurlarini so‘ngi bor sochdi. atrofni qorong‘ulik qoplay boshladi.

yoqa – metafora, **narsaning narsaga ko‘chishi**

Xulosa shuki ma‘no ko‘chish usullari nutqiy va ma‘naviy ta‘sirchanlikni oshiradi. Umuman olganda oddiylikning oldini oladi.

Shu o‘rinda inkoring inkor qonuni bor deganlaridek, ma‘no ko‘chish usullardan noto‘g‘ri foydalanamiz deb o‘ylayman. Masalan suv havzalarining ma‘lum bir qismiga “qoltiq” so‘zini ishlatamiz. Bu esa tilimizning “kambag‘al” bo‘lishiga olib kelmaydi?!



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hozirgi o'zbek adabiy tili. R.R.Sayfullayeva, M.M.Qurbonova: :R. Raupova: M.Q.Abuzalova: D.N.Yo'ldosheva.
Toshkent- 2019.
2. Chingiz Aytmatovning “Jamila” qissasi.
Toshkent-2020